

**НИЗОМИЙ НОМИДАГИ ТОШКЕНТ ДАВЛАТ
ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ**

РЕФЕРАТ

Мавзу: Оилада мулоқот

Бажарди: Чет тиллари факультети 104-гуруҳ талабаси
Назарова.Ф.И

MUNDARIJA

KIRISH

- ***OILADA MULOQOT***
- ***OILAVIY MUNOSABATLAR***
- ***ER-XOTIN MUNOSABATLARNING O'ZIGA XOSLIGI***
- ***ER-XOTINLIK MUNOSABATLARI***

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Har qanday davrda ham jamiyat va davlat aholi sonining bir maromda o'sib borishi, muayyan an'analar va muqaddas udumlarning saqlanib, avloddan-avlodga etkazilib turilishidan manfaatdor bo'lgan. Buyuk rus psixologi *A.N.Leontev* avlodlararo muloqotning jamiyat taraqqiyoti uchun ahamiyatini o'rganib, ilk asarlaridan birida agar shunday muloqot bo'lmaganida, taraqqiyotning o'zi ham mutloq bo'lmas edi, deb ta'kidlagan. Bu vazifani bajarishda jamiyatning muhim bo'lagi bo'lmish oilaning roli kattadir.

Demak, oila ijtimoiy institut sifatida eng avvalo tug'ilish orqali aholining ma'lum miqdorda muttasil o'sib borishi, odamlar o'rtasida migratsiya, ya'ni u erdan bu erga ko'chib turish yoki o'lim okibatida kamayib boradigan miqdorini to'ldirish vazifasini bajaradi. Chunki ijtimoiy hamda iqtisodiy rivojlanish uchun mehnat resurslari va ishchi kuchining yangilanib borishidan jamiyat ham, odamlar ham manfaatdordir.

Bundan tashqari, har bir jamiyatning betakror qadriyatlari, o'lmas merosi, avloddan avlodga o'tib boradigan an'analari bo'ladi. Fuqarolik holatlari, madaniy o'sish, ma'naviy yuksalishga xizmat qiluvchi qadriyatlarning saqlanib kelayotganligi ham oila tufaylidir. Masalan, shunday oilalar sulolasi borki, ular asrlar osha u yoki bu muqaddas qadriyatlarni kasb-kori, turmush tarzi orqali saqlab keladi (rassomchilik, san'atshunoslik, hunarmandchilik, gulchilik, kulolchilik, ilmiy meroslar, agrar sohada va h-zo).

Umuman odamlar jamiyatining saqlanib qolishida ham oila ayrim alohida olingan shaxs bilan yaxlit jamiyat o'rtasida o'ziga xos "bufer" – ko'prik rolini o'ynab kelmoqda. Zero, madaniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab, avloddan-avlodga etkazishda davlat va jamiyatdagi ta'lim muassasalari, madaniyat o'choqlarining ham muayyan roli bor, lekin ularda o'zgarishlar tez-tez ro'y bergani sababli, ularning avlodlararo muqaddas sanalib kelinayotgan qadriyatlarni asrab-

avaylashdagi roli oilachalik yuqori bo'lolmaydi. SHuning uchun davlat oilaning mustahkam va farovonligi, odamlarning unda tinchlik, xotirjamlikda yashashlaridan hamisha manfaatdor ekanligi sababli ham muayyan qonunlar va yuridik tizimni ushlab turadiki, ular orqali nafaqat nikohning o'zi, balki ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarni ham muvofiqlashtirib boradi. O'zbekistonda yosh oilalarga ko'rsatilayotgan muruvvatlar, bola tug'ilishi va katta bo'lishi uchun suyunchi puli, nafaqalarning belgilanishi, onalik va bolalikning ijtimoiy muhofaza qilinayotganligi, ota yoki ona farzand oldida o'z burchini bajarmagan taqdirda moddiy, ma'naviy, hatto, jinoiy sanksiyalar orqali jazolanishi ushbu noyob maskanni mustahkamlash, u orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni keyingi avlodlar uchun saqlash vazifasini bardavom etishdan iboratdir. Tahlil etiladigan bo'lsa, odamlar o'rtasida ro'y beradigan ko'plab munosabatlar orasida faqat oilaviy munosabatlarga davlat tomonidan shunchalik ardoqlanadi, masalan, sevgi-muhabbat, do'st-yoronlik, odamlar urtasidagi oldi-sotti, tadbirkorlik. mehnat munosabatlariga davlat deyarli aralashmaydi.

OILADA MULOQOT

Insonning rivojlanishini, ijtimoiylashishini, individni shaxs bo'lib shakllanishini, uning jamiyat bilan bo'lgan aloqasini muloqotsiz aslo tasavvur etib bo'lmaydi. Muloqot ham o'ziga xos ehtiyoj. Polshalik psixolog E.Melibruda aytganidek, shaxslararo munosabatlar biz uchun xavodek ahamiyatga egadir. Go'daklik va o'smirlik davrlarida muloqot etakchi faoliyatga, ya'ni yangi psixologik xususiyatlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi faoliyat sifatida gavdalanadi.

Muloqot – bu ikki yoki undan ortiq kishilar orasida affektiv baholovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashishdan iborat bo'lgan o'zaro ta'sir etishdir.

Pedagogik muloqot – pedagogik taʼsirning ajralmas sifatidir. Bu oʻqituvchi va oʻquvchining taʼlim-tarbiya jarayonida professional muloqoti boʻlib, unda maʼlumot almashinadi va oʻquvchilarga oʻquv tarbiyaviy taʼsir oʻtkaziladi.

Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatni oʻzlashtirish va oʻz individual ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega boʻladilar. Muloqot jarayonida inson xulq-atvorining muayyan obraz va modellari shakllanib, keyinchalik ular insonning “ichiga kiradi”. Individual tafakkuri, olamning va oʻzining obrazini analiz qilish hamda baholash qobiliyati muloqot jarayonida shakllanadi.

SHaxs – ijtimoiy munosabatlar mahsuli deyilishining, asosiy sababi, uning doimo insonlar davrasida hamda ular bilan oʻzaro taʼsir doirasida boʻlishini anglatadi. Bu shaxsning eng etakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi. Har bir normal inson oʻzgalar tinglashga, oʻz fikrini birovlariga etkazishga, yaʼni gapirishga, fikrlarini baʼzan yozma tarzda bayon etishga tugʻma qobiliyatli oʻzini tasavvur qiladi. Lekin ana shu birovlarni tushunish va oʻz fikrlarimiz, oʻylarimizni birovlariga etkaza olish qobiliyati aslida bizning insoniy munosabatlar tizimida ekanligimizni, har birimiz oʻzimizga oʻxshash inson jamiyatisiz mavjud boʻla olmasligimizni bildiradi.

Muloqotning turi va shakllari turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita “yuzma-yuz” boʻlishi yoki u yoki bu texnik vositalar (telefon, telegraf va shunga oʻxshash) orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki doʻstona boʻlishi; subʼekt-subʼekt tipli (diologik, sheriklik) yoki subʼekt-obʼektki (monologik) boʻlishi mumkin.

Insoniy munosabatlar shunday oʻzaro taʼsir jarayonlariki, unda shaxslaro munosabatlar shakllanadi va namoyon boʻladi. Bunday jarayon dastlab odamlar oʻrtasida roʻy beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvishu-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda boʻlishgani sari, ular oʻrtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari ular oʻrtasida umumiylik, oʻxshashlik va uygʻunlik kabi sifatlar paydo boʻladiki, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan

yoki “yarimta jumladan” ham fikr ayon bo’ladigan bo’lib qoladi, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig’izligi teskari reaksiyalarni – bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig’iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig’izlik oilaning barcha a’zolari o’rtasida emas, uning ayrim a’zolari o’rtasida bo’lishi mumkin (ona-bola, qaynona-kelin va hokazo).

O’zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlar munosabatdan ko’zlaydigan asosiy maqsadlari – *o’zaro til topishish*, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo’lsa, “jozibasi”, betakrorligi shundaki, o’zaro bir xil til topishish yoki tomonlarning aynan bir xil o’ylashlari va gapirishlari mumkin emas. Agar ana shunday vaziyatni tasavvur qiladigan bo’lsak, bunday muloqot eng samarasiz, eng beta’sir bo’lgan bo’lar edi. Masalan, tasavvur qiling, uzoq vaqt ko’rishmay qolgan do’stingizni ko’rib qoldingiz . Siz undan hol-ahvol so’radingiz, lekin u tashabbusni sizga berib, nimaiki demang, sizni ma’qullab, gapingizni qaytarib turibdi. Bunday muloqot juda bemaza bo’lgan va siz ikkinchi marta o’sha odam bilan iloji boricha rasman salom-alikni bajo keltirib o’tib ketavergan bo’lardingiz. YA’ni, muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma-xilligi namoyon bo’ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o’ziga jalb etadi. Amerikalik olim *Uolter Lippman* har bir inson qalbining o’ziga xosligi va buning muloqotda namoyon bo’lishiga ishora qilib shunday yozgan edi: “Hamma bir xil fikr yuritgan erda, hech kim ko’p o’ylamaydi”, ya’ni, odamlarning muloqotga intilishlarining asosida yotgan birlamchi motiv ham aynan suhbatlar mobaynida turlicha qarashlarga ega bo’lish, o’z fikrlarini takomillashtirishdir.

YOsh avlodni har tamonlama mukammal shaxs qilib tarbiyalashdek ma’suliyatli vazifa ota-ona elkasida. Darhaqiqat, inson shaxsini shakllatirish oiladan boshlanadi. Hususan bolada iroda, odatlar, fe’l-atvor, xulq, atrofga munosabat, e’tiqod va qarashlar vujudga keladi. Ana shulardan kelib chiqib, turmushda insonni kamol toptirish sharoitlari, ta’sir ko’rsatish imkoniyatlarini

izchil o'rganmay turib, shaxsning xususiyatlari va ularni keltirib chiqaruvchi omillar to'g'risida fikr yuritish mumkin emas. Oila murkkab ijtimoiy guruh bo'lib, biologik, ijtimoiy, ahloqiy, mafkuraviy va ruhiy munosabatlarning birlashuvi natijasida vujudga keladi. SHu sababli turmushdagi va oila a'zolari munosabatlaridagi o'zgarishlar uning moddiy-maishiy, iqtisodiy negizi o'zgarishiga bevosita bog'liqdir.

Oila a'zolarining o'zaro munosabatlarini tadqiq qilgan venger sotsiologi M.Kolomosh 10-14 yoshdagi maktab o'quvchilarining o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatiga bevosita ta'sir qiluvchi oila muhiti (vaziyat, sharoit, holat) omillarini to'rt guruhga ajratadi:

1)ota-onalarning jamoatchilik faoliyati (ularning mafkuraviy qarashlari va ishga nisbatan munosabatlari):

2)oila ichidagi munosabatlari (ota-ona munosabati, ota-onalarning buva va buviga munosabatlari, aka-ukalar va opa-singillarning o'zaro munosabatlari):

3)ota-onalarning tarbiyaviy–pedagogik faoliyati (ularning tarbiyaviy muammolari, qiziqishlari, maktab bilan hamkorliklari, o'quvchilarga dars tayyorlash kezida ota-onalarning yordami, ularning tarbiyaviy ahamiyati:

4)oilada o'quvchining faoliyati (o'quvchining kundalik tartibi, xo'jalik ishlaridagi muayyan majburiyati) va boshqalar.

Hozirgi kunda jamoatchilikni quyidagi dolzarb muammolar tashvishga solmoqda. Oilada o'g'il-qizlar kimlar tomonidan tarbiyalanayaptilar va ular qanday ruhda, maromda tarbiya olmoqdalar? – Oilaning tarbiya ishi rejasi va tartibli olib boriladimi? O'quvchilar ko'z o'ngida ota-ona, katta yoshdagi qarindosh–urug'lar, tug'ishganlar qanday darajadagi obro'ga egalar? Oila tarbiyasi va ota-ona o'rtasida birlik, umumiylik mavjudmi? Maktabda qo'llanayotgan ahloqiy tarbiya vositalari va shakllari qanday tadbiq etilmoqda? Oilada rag'batlantirish va jazolash metodlaridan qay yo'sinda foydalanmoqda va shu kabilar. SHuningdek, shaxslararo munosabatlarda oila a'zolarining asab sistemasi (uning kuchi, muvozanati, ildamlig'i, beqarorligi), temperamenti (uning xolerik,

sangvinik, flegmatik toifalari), g`oyaviy maslagi, uning qiziqishi, xis-tuyg`usi, ideali, e`tiqodi, dunyoqarashi, shaxsiy pozitsiyasi) ahloqiy xislati, diqqati, uning kuchi, tarqoqligi, parishonxotirligi, tiyrakligi) xotirasi, irodasi (mustaqilligi, qat`iyligi, dadilligi, mard-qo`rqmasligi), nutq (mazmunli, mantiqli, oxangli, sur`ati, dag`al va yumshoqligi), emmotsional ichki kechinmlari (kayfiyati, extirosi, zo`riqishi, jo`shqinligi, qo`rsligi, achchiqlanishi, xursandligi) kabi ruhiyat va ma`naviyat jixatlarini hisobga olgan xolda joriy qilish muammolari ham kishilarni juda qiziqtiradi.

Oila a`zolari o`rtasidagi munosabatlar tuzilishining taxminiy sxemasi quyidagicha:

- 1)buva va buvi hamda oilaning qolgan barcha a`zolari aloqasi:
- 2)ota-onaning o`zaro munosabatlari:
- 3)ota-ona va farzandlar orasidagi muloqot:
- 4)farzandlarining o`zaro munosabatlari tartibi:
- 5)kelinning barcha oila a`zolari bilan munosabatlari:
- 6)kelinlarning (ovsinlar) o`zaro muloqot qilishlari kabilar.

Odamlar o`rtasidagi muloqot va uning umumiy qonuniyatlari odam turmush tarzining barcha jabhalarida boshqa odamlar bilan bo`ladigan o`zaro munosabatning eng muhim shartlaridan hisoblanadi. Odamning aqli, irodasi, hissiy madaniyati, tarbiyalanganligi, nazokati va shu kabilarning barchasi muloqot tufayli shakllangan xislatlardir. SHu bilan birga uyqusizlik, bosh og`rig`i, nevrozlar, insultlar, infarktlar va boshqa turli kasalliklar, shuningdek ichkilikka, giyohvand moddalarga ruju qo`yish, hatto o`z joniga qasd qilish kabilar ham shu muloqotning natijasidir. Rivoyatlarda aytilishicha, dono Ezop o`z xo`jayinining «Menga avval, dunyodagi eng mazali, shirin taomni keltir va undan so`ng aksincha eng bemaza, yaramas taomni keltir», - deb buyurganida, u har ikkala safar ham qaynatilgan tilni keltirgan ekan. Demak, til, muloqot inson hayotida undan qanday foydalanish, uni qanday ishlatish, qanday tashkil qilishga qarab,

uning uchun eng aziz, eng qadrli bo'lishi yoki aksincha eng fojiali bo'lishi ham mumkin.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida odamlar kundalik muloqotining tezlashuvi, aholi zichligining ortib borishi, odamlar turmush tarzining jadallashuvi, ularning ruxiy zo'riqish va ta'sirlanuvchanligining kuchayib borishi kabi holatlar bugungi kunda muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishini ta-qazo etadi.

Muloqot madaniyati. Muloqot madaniyatiga *birinchidan*, o'z-o'zini bilish va boshqa odamlarni tushuna olish qobiliyati, ya'ni ularning psixologik xususiyatlarini to'g'ri baholay olish, *yakkinchidan*, ularning xulqi va holatlariga nisbatan mos (adekvat) munosabat bildirish olish, *uchinchidan*, har bir odamga nisbatan uning shaxsining individual xususiyatlariga eng ma'qul keladigan muloqot shakli, usuli va stillarini tanlay bilish kiradi. Muloqot madaniyatini oshirish uchun odamda ilk yoshlikdan boshlab boshqa odamlarga hurmat va samimiyat bilan munosabatda bo'lishni, ularga hamdardlik, insonparvarlik, mehribonlik qilish qobiliyatlarini shakllantirib borish kerak bo'ladi.

Muloqot eng avvalo odamni odam tomonidan idrok qilishidan boshlanadi, unda dastlabki o'zaro baholash amalga oshadi, dastlabki hissiy-intellektual munosabatlar shakllanadi va shundan so'ng tegishli muloqot shakli amalga oshiriladi. Bu jarayonda odam haqidagi ma'lumot, idrok etilayotgan odamning hayotiy tajriba-si, u yoki bu munosabat shaklini yoqtirishi yoki yoqtirmasligini yuzaga keltiradigan bevosita emotsional munosabatlar muhim rol o'ynaydi.

Muloqotda buyruq ohangining ustunligi, do'q-po'pisa ohangida keskin shaklda muomalada bo'lish, suhbat-dosh nomiga tez-tez biddirilib turiladigan e'tirozlar, uning xatti-harakati va fikrlaridan norozilikni ifodalash, yo'l bermaslik va tajovuzkorlikni namoyon qilish, oilada o'zaro raqobat (yoki hukmronlik-bo'ysituvchanlik) munosabatlarini yuzaga keltiradi. Befarqlik, e'tiborsizlik, qo'pollik, bemexrlik, behurmatlik kabilar oiladagi samimiy muloqotga putur etkazadi. Agar aksariyat hollarda iltimoslardan, maslahatlardan, o'zaro kelishuvli savol-javoblardan, o'z niyat-istaklarini, xatti-harakatlarini xotirjamlik bilan bayon qilish usulidan foydalanilsa,

agar oilada o'zaro yordam, o'zaro tushunish, bir-birlariga yon berish odat bo'lsa, unda bunday oilalarda do'stona munosabatlar o'rnatiladi, oilaviy hayot uchun eng maqbul bo'lgan psixo-logik muhit yuzaga keladi.

Odamlar o'rtasida bir-birlarini tushunishning etishmasligi ko'pincha muloqotdagi to'siq, shaxslararo munosabatlarni buzilishining sababi bo'lib hisoblanadi. Bizlar boshqa odamlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarimizda nima uchundir, o'zimizning fikr-o'ylarimiz, niyatlarimiz suhbatdoshimizga ayon deb hisoblaymiz. Bundan tashqari hamma odamlar ham bolaligidan boshqa odamlarning emotsional holatlarini his qilish, ularni ko'rish, ular bilan hisoblashish, ularni tushunishga intilishga o'rgatilavermaydi. SHuning uchun ham ko'pchilik holatlarda hatgo bir-biriga eng yaqin, bir-biriga zid manfaatlarga ega bo'lmagan odamlar ham hayotda bir-biriga noxushliklarni etkazishi mumkin. Albatta, bu ishlarni ular bir-birlariga yomonlik, yovuzlik qilish niyatida, yoki o'zlari yovuz odamlar bo'lganliklari uchun emas, balki, shunchaki bir-birini tushunmaganliklari «nima qilayotganliklarini bilmaganliklari» uchun sodir etadilar. SHunga o'xshash holatlar odamlarning o'zaro munosabatlari, muloqotlarida o'ziga xos to'siq vazifasini bajaradi.

Muloqot jarayonida yuzaga keladigan to'siqlar

Ijtimoiy psixologlar muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarning quyidagilarini farqlaydilar: *psixologik*, *vaziyatli*, *mazmuniy* va *motivatsion* to'siqlardir.

Psixologik to'siq - bu sherigiga ma'qul tushmay qolish, tushunilmay qolishdan qo'rqish, u tomondan inkor etilish va kalaka qilinishdan yoki keskinlikdan qo'rqish, eng ezgu hislarini va niyatlarini samimiy izhor etishiga javoban qo'pollik bilan javob berilishi mumkinligidan xavotirlanish kabilar tufayli intellektga oid, mehribonlikka oid, kuchga oid shaxsiy imkoniyatlarini namoyon qilish va amalga oshirishga halaqit beruvchi, o'ziga xos ichki psixik tormozdir.

Vaziyatli tusiqlar - bu suhbatdoshlarning bir xil vaziyatni turlicha

tushunishlari, unga turlicha yondashishlari bilan bog`liq.

Mazmunliy to'siqlar - odatda suhbatdoshini tushunmaganlik tufayli, uning mazkur jumlasini qanday ma`noda aytilgani, u qanday fikrni ilgari surayapti, nimani nazarda tutayapti, nimaga olib boradi va shu kabi mulohazalarga borish tufayli yuzaga keladi.

Motivatsion to'siqlar - shunday vaziyatlarda yuzaga keladiki, bunda gapirayotgan odam yo o'zi bayon qilayotgan fikrning motivini etarlicha anglay olmaydi yoki u atayin ularni (asosiy motivni) yashirishga harakat qilayotgan bo'lishi mumkin.

Bulardan tashqari muloqotga to'siq bo'lib, suhbatdoshlarning psixologik madaniyatlilik nuqsonlari-dan biri, ya`ni ularning yo eshitishni va yoki tinglashni bilmasligi, «teskari aloqaning» yo'qligi xizmat qilishi mumkin. Odamlar o'rtasidagi suhbat ko'pincha ularda aqlning etishmasi tufayli emas, balki ularning xudbinligi tufayli: har biri o'zi haqida yoki o'zini qiziqtiradigan masalalar haqida gapirishga intilishligi tufayli kutilganidek amalga oshmay qolishi mumkin. Oqibatda bitta «aqlli» dialog o'rniga, ikkita behuda, hatto zararli monolog amalga oshadi. SHuning uchun ham muloqotga, suhbatlashish san`atiga o'rganish, ijtimoiy-psixologik madaniyatni egallash, o'zi, o'z kayfiyati va hissiyotlarini boshqara olish, bilim va malakalarini ishlab chiqish, o'z gapi bilan suhbatdoshini qiziqтира olish qobiliyatini rivojlantirishga erishish kerak. Biroq, buning uchun birinchi navbatda har qanday muloqotning umumiy qoidasi: boshqa odamlarning, o'z suhbatdoshlarining ehtiyojlari, xohishlarini qondira oladigan odamgina hurmatga erisha olishini yodda tutishi lozim.

OILAVIY MUNOSABATLAR

YOsh oilalarda er-xotin munosabatlari o'ziga xos hududiy, etnik, jinsiy, yosh va individual psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan er-xotin munosabatlari shakllanishining eng nozik va hal qiluvchi shakli hisoblanadi. U yoki bu yosh oilaga xos bo'lgan er-xotin munosabatlari boshqa bir er-xotonga mos kelmasligi

mumkin. Chunki yosh oilani yuzaga keltirgan er-xotinlar turli xil shaxslararo munosabatlar tizimi, turlicha taomilga ega bo'lgan oilalarda tarbiyalangan, shaxs sifatida shakllangan individlardan tashkil to-padi. Lekin shunga qaramasdan maxsus psixologik tadqiqotlarda va ulardan olingan natijalar asosida yozilgan ilmiy psixologik adabiyotlarda yosh oilalarda er-xotin munosabatlarining shakllanishi va rivoj-lanishining umumiy mexanizmlariga oid tegishli ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Umuman yosh oilalarda er-xotin munosabatlarining qay tarzda rivojlanishi avvalo shu yosh oilaning yuzaga kelishiga asos bo'lgan nikoh odtsi omillarining xarakteriga, shu oilalarning yuzaga kelish shart-sharo-itlari bilan uzviy bog'liadir. Bular haqida oldingi mavzuda qisman to'xtalib o'tdik.

Albatta, yosh oila yuzaga kelar ekan, ular bir-birlarini sevib turmush qurishganmi, qarindosh urug'chilik, tanish-bilishchilik, sovchilik, hisob tufaylimi yoki stereotip bo'yichami, qanday bo'lishidan qat'iy nazar nikohning ilk kunlarida ularning bir-birlariga nisbatan bo'lgan o'zaro munosabatlarida, er-xotin o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarda emotsional ko'tarinkilik, hissiy rang-baranglik darajasi yuqori bo'ladi. Bir-birlarini ma'lum bir muddat sevishib oila qurgan juftlarda bunday emotsional ko'tarinkilik darajasi nihoyatda yuqori bo'ladi. Chunki ular bir necha yil kutib, intilib yashagan, visol damlariga nihoyat etishgan bo'ladilar. Bunday juftlar nikohi boshida er-xotin o'rtasidagi shaxslararo muno-sabatlarda emotsional ko'tarinkilik, bir-birlariga emotsional intilish juda yuqori darajada bo'ladi. Nafaqat sevishib oila qurganlar, balki deyarli barcha motivlarga ko'ra oila qurgan yoshlarda ham nikohning boshida er-xotin o'zaro munosabatlarida bir-biriga yaqinlik, bir-birini qadrlash, hurmat qilish nisbatan yuqori bo'ladi. Ularning bir-birlariga, o'z nikohlariga, o'zlarining bo'lajak oilaviy hayotlari haqidagi niyat, orzu, umidlari ezgu, ijobiy bo'ladi. Chunki hech kim va hech qachon ertaga bo'lajak turmush o'rtog'im, yangi oilamning yangi a'zolari bilan nizo-janjalga boraman, ular bilan urishaman va oxir-oqibatda oilam buzilib, ajrashib ketaman, deb oila qurmaydi (Ayrim hollarda majburan oila

qurganlar bundan mustasno). Inson oila qurar ekan ahil-inoq yashab, murod maqsadga etishishni orzu qiladi, nikoh arafa-sida va nikoh kechasi ham barcha yaqin birodarlar, qarindosh-urug`lar, to`yga taklif buyurgan mehmonlar yoshlarga ezgu niyatlar bildiradilar. SHuningdek, yoshlar oila qurish arafasida va nikohlarining dastlabki kunlarida turmush o`rtog`i timsolida, o`zining shu orzu-istaklariga, murod-maqsadlariga etishishda yor-dam beruvchi, uni qo`llab-quvvatlovchi, uni har soniya, har onda tushunuvchi o`z tabiatiga yaqin odamini tasavvur qiladi va unga imkon qadar shunday ijobiy, iliq munosabatda bo`lishga harakat qiladi.

Biroq, hayotda, ayniqsa oilaviy hayotda hamma narsa ham odam kutganidayin bo`lavermaydi. Oilaviy hayot-ning o`ziga yarasha notekisliklari, past-balandliklari, murakkabliklari, muammolari bo`ladi. SHunday murakkabliklardan biri yosh er-xotinning yangi ijtimoiy statusga, mavqega: er, kuyov, uylangan, oilali yigit, xotin, kelin, turmushga chiqqan ayol rollariga, o`zlari uchun yangi bo`lgan ijtimoiy muhitga, yangi oilaga moslashish jarayoni bilan bog`liq. Xo`sh bu yangi sharoitlarga moslashish jarayoni kimda qanday kechadi?

Albatta bu jarayon erkaklarda ayollarga nisbatan engilroq kechadi. CHunki ular, o`zbek oilasining etnik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aksariyat hollar-da erning uyida, uning ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan yashaydi. YA`ni yigit uylanganidan keyin ham o`z oilasida, o`z yaqinlari va o`zi uchun ol-dindan odat bo`lib qolgan oilaviy, shaxslararo munosabatlar tizimida qoladi. Ayol kishining esa nikohdan keyingi holati, oldingisidan keskin farq qiladi. Birinchidan, u o`zi uchun deyarli yangi bo`lgan, ol-dingisidan tubdan farq qiladigan muhitga tushadi. U o`ziga xos shaxslararo munosabatlar tizimi, rollar taqsimoti, o`ziga xos «pocherkka» ega bo`lgan o`zining qizlik oilasidan, boshqa bir oilaga, boshqacha bir shaxslararo munosabatlar tizimiga ega bo`lgan yangi oilaviy muhitga tushadi. Undagi mavjud «pocherk» oldingisiga mos tushmaydi, bundagi oilaviy rollar taqsimoti ham oldingisiga o`xshamaydi, u erdagi ma`lum bir ishni bajarish tartibi, u yoki bu ishga qo`yiladigan talablar ham oldingisiga o`xshamaydi. Bu-ning ustiga

yosh oilada yosh kelin zimmasiga yuklatiladigan vazifalar ham uni qizlik vaqtida bajaradi-gan ishlaridan ham miqdor, ham mazmun jihatdan tubdan farq qiladi. YAngi ijtimoiy sharoitga moslashish jarayonining o'zbek oilalarida ayol kishi uchun qiyin kechishining asosiy sabablaridan yana biri unda yosh kelin yuqorida aytib o'tilgan vaziyatlarga tushishi bilan birga ularda bu yangi oilada kelin o'zini «begona» deb his etishidir, ya'ni undagi «begonalik effekti»ning mavjudligidir.

YUqorida keltirib o'tilganlardan ko'rinib turibdiki, yosh oila yuzaga kelganidan so'ng unda er-xotin munosabatlarining «kutilganidek» rivojlanishiga halaqit qiladigan ko'plab ijtimoiy psixologik, etnik, xududiy, jinsiy omillar borki, yoshlarimiz bularning barchasi haqida oldindan xabardor bo'lishi va ularning salbiy ta'sirlarini yumshatib, ijobiy ji-hatlarini rivojlantirishga tayyor bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.

SHunday qilib, eng ezgu niyatlar bilan oila qurgan yoshlarda er-xotinning shaxsiy munosabatlari baxtga qarshi yaxshidan yomonga qarab rivojlana boshlaydi. CHunki nikohning boshida kuzatiladigan er-xotin o'rtasidagi ko'tarinki emotsional yaqinlik asta-sekinlik bilan pasayib, ular hissiyotlarining o'tmaslashuvi ro'y beradi. Bu holatlar albatta har qanday oilada shaxslararo munosabatlar rivojlani-shining o'ziga xos dinamikasini tashkil qiladi. Bu holatdan voqif bo'lish va uning o'zgarishlariga tayyor turish yosh oilalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ayrim ko'ngilsizliklarning oldini olishga asos bo'ladi.

ER-XOTIN MUNOSABATLARNING O'ZIGA XOSLIGI


Oilaviy munosabatlar attraktsiyasi. Oila a'zolari o'rtasida sodir bo'ladigan murakkab va serqirrali o'zaro munosabatlar ko'plab olimlar, shu jumladan, o'zbekistonlik olimlar (*M.Davletshin, G`.SHoumarov, E.G`oziev, B.Qodirov, X.Karimov, N.Sog`inov, F.Akramova, G.YAdgarova, M.Salaeva, D.Xoliqov* va boshqalar) tomonidan o'rganilgan. Ularda ko'proq o'zbek oilasiga xos urf-odatlar, udumlar, an'analar nuqtai nazaridan oilaviy munosabatlarning etnopsixologik

qirralari tadqiq etilgan. Lekin oila institutini ijtimoiy voqelik sifatida uning qonuniyatlarini tahlil etar ekanmiz, bu o'rinda biz oilaviy o'zaro munosabatlarga xos bo'lgan munosabatlarning psixologik tabiatiga, kelib chiqishi va dinamikasiga e'tiborni qaratgan ko'plab tadqiqotlarda ilgari surilgan ma'lumotlarni keltirishni joiz deb bildik. SHu nuqtai nazardan oilaviy munosabatlar fenomenologiyasi ijtimoiy-psixologik izlanishlar ob'ekti sifatida o'rganilgan bir qator tadqiqotlar natijalariga murojaat qilamiz.

Oiladagi ijtimoiy munosabatlar va ularning kelib chiqish qonuniyatlarini batafsil monografik tarzda o'rganganlardan biri rus olimi *L.YA. Gozman* (1987) hisoblanadi. U bu qonuniyatlarni ilmiy jihatdan tahlil etish uchun attraktsiya tushunchasini ishlatgan. **Attraktsiya** inglizcha *attraction* – *tortilish, intilish* so'zlaridan olingan bo'lib, u bir insonning ikkinchi bir insonga nisbatan his qiladigan ijobiy munosabatini anglatadi. Har qanday ana shu zayldagi diadik, ya'ni, diada – ikki kishi o'rtasidagi munosabatlarning boshlanishi simpatiya, yoqtirish yoki attraktsiya bilan bog'liqdir.

Gozmanning ta'kidlashicha, juftlik munosabatlarida attraktsiyaga turtki bo'luvchi omillarning eng muhimi – bu sherikning tashqi, jismoniy jihatdan yoqimtoyligi va uning ijtimoiy-demografik xususiyatlaridir. YA'ni, bir ko'rishda yoqtirib qolish, uning xusniga rom bo'lish kabilar attraktsiyaning dastlabki bosqichi bo'lib, bu aslida odamlar ongidagi bir bid'atga, ya'ni chiroyli odam aqlli va ahloqli bo'lishi to'g'risidagi tasavvurlarga bog'liqdir. Ayniqsa, bunday tasavvur xotin-qizlarga nisbatan qo'llanilishi isbotlangan. Buni muallif grafik shaklida U – simon egrilik tarzida tasavvur etadi (4.1-rasm).

4.1 – rasm. YOqtirib qolishning tashqi yoqimtoylikka bog'liqligi




YOqtirib qolishga turtki bo'luvchi ijtimoiy-demografik xususiyatlarga eng avvalo insonning jamiyatda tutgan o'rni, ijtimoiy maqomi, ma'lumoti darajasi, kasb-kori, moddiy ta'minlanganligi, millati va diniy e'tiqodi, qaerda, kimlar bilan yashashi kabilar kiradi. Ko'pincha ayni shu belgilar yoki xususiyatlar bilan yaqin bo'lgan insonlar o'zaro bir-birlarini tezroq yoqib qoladilar, chunki o'xshash belgilar yoki ko'ngildagi sifatlarning sherikda, tanishda mavjudligi unga nisbatan ijobiy fikr-mulohazalarning shakllanishiga, stereotiplarning yaxshi ma'noda uyg'unlashishiga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, yoqtirib qolishga shaxsning qadriyatlari tizimi, hayotdagi maqsadlarining mushtarakligi, bajarayotgan ijtimoiy rollarining yaqinligi, omadlilik kabi qator jiddiy sifatlar ham turtki bo'ladi. SHuning uchun talabaning talabani yoqtirib qolishi, tibbiyot xodimining aynan shu sohada ishlaydigan odamni bir ko'rishda "sevib qolishi", safarda birga bo'lganlarning yoki dam olish maskanlarida tanishib qolganlar o'rtasida romantik munosabatlarning uyg'onishi ehtimoli ko'proqdir.

Bir ko'rishda yoqtirib qolish jarayonining jiddiyroq munosabat-larga aylanishini tushuntirish uchun olimlar "*uch filtr nazariyasi*"ni ilgari suradilar (4.2

– rasm).

4.2 – rasm. SHeriklik munosabatlarning dinamikasini ifodalovchi
“uch filtr” nazariyasi



1-filtr bir insonning boshqa bir insonni bevosita o'ziga qaratishi bilan bog'liq jarayon bo'lib, bunda yangi tanishning tashqi jozibasi, bir qarashda ko'zga tashlanadigan sifatlari (masalan, qiz bolaning sochi uzun, ko'zi moviy, yigitning bo'yi uzun, alp qomat kabi) asosiy rol o'ynaydi. Bunday munosabatlar ko'pchilikka xos, ya'ni aksariyat odamlar turli vaziyatlarda boshqa bir odamni yoqtirib qolaveradi. Agar bir-birini o'zaro yoki bir tomonlama yoqtirish mobaynida sherikning ijtimoiy-demografik xususiyatlari ham kutishlarga mos, ma'qul kelib qolsa, munosabatlar 2-filtrga o'tadi. Agar yangi tanishlarning ijtimoiy-psixologik, shaxsiy xususiyatlari va hayotiy maqsadlari ham bir-birlariga ma'qul kelsa, uyg'un munosabatlar 3-filtrga ham o'tadi. Har bir filtrdan o'tishda sheriklar bir-birlari uchun o'zlarining yangidan yangi qirralarini ochaveradilar. YA'ni, yangidan topishgan, bir-birini yoqtirib qolgan odamlar uchun muhim bo'lgan asosiy narsa o'xshashlikni qidirish va ularni inobatga olgan holda o'z munosabatini bildirishga intilishdir. Boshqa bir yo'nalish – bu sherigida o'zida etishmayotgan, o'zida mavjud bo'lmagan sifatni topish va uni o'zidagi sifat bilan uyg'unlantirishga intilish. Masalan, o'zi o'ta tortinchoq bo'lgan qizga dadil, gapga chechan yigitning yoqib qolishi ko'p kuzatilgan.

Uchinchi yo'nalish ikkinchiga yaqin, ya'ni, yangi tanishda o'zidagi mavjud

sifatlarning qarama-qarshisini izlash, masalan, yigit kamgap bo'lsa, shaddot, sergap qizni yoqtirib qoladi. Bu kabi kemtiklarni sherigi orqali to'ldirishga intilish, ularga kelajakdagi munosabatlarda anchagina egiluvchan bo'lish va har biridagi yaxshi sifatlarni qadrlashni o'rgatadi.

Er-xotinlarning oiladagi muloqoti, shaxslararo muloqotning umumiy qonuniyatlariga bo'ysunish bilan birga, dastavval ishdan tashqari, bo'sh vaqtlarini birgalikda o'tkazish bilan shartlangan o'ziga xos xususiyatlariga ham ega. Hamkasblar, o'rtoqlar, do'stlar va sevishtganlar hamma vaqt ham birga bo'lish imkoniyatiga ega emaslar, qaytanga, o'z muloqotlarini o'zlari xohlagan vaqtlarida bir oz kamaytirib, hatto uzib (to'xtatib) qo'yishlari ham mumkin (uchrashuvga borishi lozimligini «unitib» qo'yish, kutilmaganda «juda band» bo'lib qolishi mumkin va sh.k). Er-xotinlar esa ko'pincha bunday imkoniyatlardan mahrumdirlar. Ular bir xonadonda, ko'pincha bir xonada birga bo'lishga «mahkum» etilgan. Albatta bu gaplar ko'pchilik yoshlarimizda (ayniqsa bir-birlarini sevuvchi yoshlarda) tushunmovchilik, ishonmaslik, e'tiroz tug'dirishi mumkin, chunki ular, o'zing uchun aziz, sevimli bo'lgan odam bilan birga bo'lish, uning yonida bo'lish «majburiyati» bu eng orziqib kutilgan orzuning ro'yobga chiqishi-ku deb hisoblashlari mumkin. Biroq bu «mahkumlik» bilan hisoblashmaslik ham mumkin emas. Turli aholi punktlarida mahallalarda, qo'ni-qo'shnilar o'rtasida ko'pincha faqat ayollardan yoki faqat erkaklardan iborat «kompaniyalar» qam behudaga yuzaga ke-lavermaydi.

Qadimiy, afsonaviy Sparta qonunchiligida er-xotinlarni ishqiy munosabatlarini sovuklashib ketishidan saklash maqsadida ularning muloqotlari im-kon qadar chegaralab qo'yilgan. Unga ko'ra erlar xotinlaridan ajratilgan holda, ya'ni er va xotin boshqa-boshqa yashaganlar va ular faqat ovloq joylardagina, «begona ko'zlardan» yashirin tarzda uchrashib turishlari mumkin bo'lgan. Bu tadbir nafaqat Sparta jangchilari o'zlarining jangovor ruxlarini yo'qotmasligi, o'zlarining yosh xotinlari bilan mashg'ul bo'lib qol-masliklari uchungina emas edi. Bunda «taqiqlangan meva» effektidan foydalanilgan. Uchrashishlarning qiyinligi, xuddi

tuzsiz taomga tuz, ziravorlar qanchalik maza berganidek, er-xotinlarning bir-birlariga hissiy yaqinligini sezilarli darajada kuchaytiradi, nikoh rishtalarini mustahkamlaydi. YOki SHEkspirning qahramonlari Romeo va Julettalar ham, agar ular unashtirilganlaridan so'ng barcha qulayliklari bilan alohida «koshona» berilganda edi, ular o'zlarini boshqacha tutgan bo'lishardi.

Doimiy muloqot bir xillik ko'rinishini yuzaga keltiradi, tabiiyki, bundan hayotdagi kundalik ikir-chikirlar ko'payadi, ayni vaqtda chuqur hissiyotlar o'z ob`ektining yaqinligi tufayli kundalik odatlar shaklini oladi. Odamlar bir-birlaridan bir oz muddat ayri yashashsa hammasi joyiga tushadi: muhim to'siqlardek tuyulgan narsalar arzimagan mayda chuydalarga aylanib qoladi, qisqa muddatli hijron ta`sirida chuqur hissiyotlar kuchayadi va yana o'ziga yarasha kuchga ega bo'ladi.

Er-xotin muloqoti, muomalasining o'ziga xos nozik jihatlaridan yana biri ularning bir-birlari bilan etarli darajada intim munosabatlarda bo'lishi-dir. Bu albatta ularning o'zaro munosabatida shubhasiz o'z izini qoldiradi. Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish joizki, bizni bolalikdanoq olgan o'ziga xos tarbiya-miz jinsiy munosabatlar, jinsiy muloqotga noma`qul uyat, go'yoki axloqsiz hodisadek qarashga majbur qiladi. Biz jinsiy moyillikni uzoq vaqt bir yoqlama past, sharmandali, odam hissiyoti uchun noo`rin nar-sa deb atab kelganmiz (ba`zilar hozir ham shunday deb hisoblaydi). Nima uchun shunday bo'lgan? CHunki u hayvonlar uchun ham, odam uchun ham umumiy. Biroq, ochlik ham, chanqoqlik ham hayvonlarda qanday bo'lsa, odamda ham shunday bo'ladi. Ammo bizning axloq va odatlarimiz, ma`naviyatimiz doirasida ular haqida nafaqat oshkora gapirish, balki ularga bo'lgan ehti-yojlarni boshqalarning ishtirokida, ko'z o'ngida qondirish mumkin, ya`ni ular odamlarga xos deb qabul qilingan. Nima bo'lgan taqdirda ham biz o'zimizning «hayvoniy» tabiatimizdan bari-bir qutula olmaymiz. Bunda hammasi bu hislarning yuzaga kelishiga emas balki, ularni qachon, qaerda, qanday sharoitda va qanday tarzda namoyon qilamiz, biz ularga so'zsiz buysunadigan qullarmizmi yoki mulohazakor va mehribon

xo'jayinlarimizmi, mana shunga bog'liq.

Odamlar oila qurishar, nikoxdan o'tishar ekanlar, tabiiyki, seksual munosabatlarga kirishadilar.

Endi nikoxdan keyin bu «mumkin». Biroq bolalikdan jinsiy aloqa, jinsiy akt haqida qanday-dir bir «yomon» narsa deb tasavvur qilib tarbiyalan-ganlik, ayrim er-xotinlarga eng ostida bo'lsada, xalaqit qiladi va bu ba`zan ularning bir-birlariga axloqsiz qiliqlarni qilishda o'ziga xos sherik deb qarashga majbur qiladi.

Vaqt o'tishi bilan er-xotinlarning bir-biri ol-didagi «sir asrorlari tobora ochilib» boraveradi.; Afsuski, shu bir-birlari uchun oshkorlashib borishi faqat ma`lum bir zaruriy chegaradagina amalga oshadi. Ozoda, muloyim, ehtiyotkor yigit endi o'ziga qaramaydigan, befarosat, qo'pol erga aylanadi. Ozoda, bejirim, did bilan kiyinadigan, kamtarin, nozik qiz, bo'lajak kelin endi beo'xshov kiyingan, o'ziga qaramaydigan, vaysaqi xotinga aylanadi. Uning oldingi jozibasi, go'zalligi go'yoki «yo'qoladi».

Har bir xalqtsa, har qaysi zamonda go'zallikning o'ziga xos belgilari, etalonlari bo'ladi. Go'zallik va go'zal emaslik haqidagi tasavvurlar vaqt o'tishi bilan so'zsiz o'zgaradi. Biroq, umumxalq tomonidan qabul qilingan va e'tirof etilgan go'zallik etalonlari bilan bir qatorda individual, shaxsiy, xususiy etalonlar ham bo'ladi. Aytishlaricha, boyo'g'li qushlarning orasida eng go'zallari uning bolalari ekanligidan maqtanar ekan, chunki «ularning hammasining quloqlari uzun, boshi katta, umuman o'ta go'zal» ekan. Kim biladi, bu borada kabutar nima degan bo'lar ekan. Aynan shu sababga ko'ra xalq ichida tipratikon o'z bo-lasini yumshog'im, qo'ng'iz bolasini oppog'im deydi, - degan maqol bor. SHuning uchun ma`lum bir namunaga o'zini urish, o'zini o'shanday bo'lishga majburlash kerak emas. Har joyning ham o'z toshu-tarozusi, o'lchami mavjud. Xotinini sevuvchi er uchun uning xotini (yoki erini sevuvchi xotin uchun uning eri) umumiy etalonga mos keladimi yoki yo'qmi, bundan qat'iy nazar ko'pincha eng go'zal, chiroyli, kelishgan odam deb tasavvur qilinadi. Aynan mana shu go'zallikni o'ziga xos «ziravorlar»: kiyimlar, soch turmagi, xatti-harakat, imo-

ishoralar, qiliqlar, so'zlar va shu kabilar bilan saklab qolish kerak bo'ladi. Uni nafaqat «xalq ichida» balki uyda ham saqlash kerak.

Intim munosabatlar . Bu nafaqat seksual munosabat, nafaqat jinsiy aloqa, balki ancha ochiq, yaqin, ma'naviy muloqotdir. Intim (frantsuz tilida - - «yaqin», «qulay», «ko'ngildan», lotinchada - «chuqur», «chin dildan») muloqotlar deyilganda, psixologiyada shunday muloqotlar tushuniladiki, unda odam boshqa odam oldida qandaydir bir ijtimoiy rolni (rahbar yoki xodim, sotuvchi yoki vrach va shu kabi) bajaruvchi emas, balki aynan «yagona» shaxs sifatida - nodir, takrorlanmas mavjudod sifatida namoyon bo'ladi, bunda u mutloqo oshkora, ochiq, hech narsadan qo'rqmay, o'zining ichki olami, o'zining barcha xususiyatlarini uyalmasdan namoyon qila oladi. Bunday muloqotda suhbatdosh odamlar o'rtasida chuqur va keng o'zaro oshkoralik (jismoniy, psixologik, shaxsiy, ma'naviy) amalga oshadi. Bunda suhbatdoshlarning tanasi, fikri, hissiyoti, xarakteri va hayotiy rejaları, qadriyatlari va fikrlari ochiladi.

Intim munosabatlarga sevgi, do'stlik, dushmanlik, yolg'izlik kabilarni kiritish mumkin. Biroq intim muloqotlar nafaqat istalgan muloqotlar sifatida, balki xavfli, «qo'rqinchliroq» muloqotlar sifatida ham idrok qilinishi mumkin. Bu muloqotlar tushu-nish va hamdardlikka o'zaro qo'llab-quvvatlash, dalda berish, bir-birini tushunishga bo'lgan ehtiyojlarni qondiradi. Er-xotin o'rtadagi muloqot jarayonida o'z hissiyotlarini, ichki kechinmalarini jilovlashga, harakat qiladi, uning fosh bo'lib qolishdan, pinho-niy tuyg'ularini ochilib qolishidan hayiqish hissi namoyon bo'ladi. SHuning uchun ayrim odamlar muloqotda ko'pchilik tomonidan qabul qilingan muloqotlar darajasida qolishga harakat qiladilar. Buning boisi, avvalo odamning ichki kechinmalarini oshkora qilib qo'yishdan qo'rqish yoki jufti oldida o'zini «fosh» qilib qo'yishni xoxlamaslik, o'zini pinhoni, hatto o'zi ham o'zida ko'rishni istamaydigan xislatlarni fosh qilib qo'yishdan qo'rqishdir. Odamlarning «tashlab ketilishdan» qo'rqishi ham shu bilan bog'liq (borlig'ingni oshkora qilib qo'yganingdan so'ng sen jufting uchun qiziqarli bo'lmay qolasan, u seni barcha xislatlaringni bilib, ko'rib bo'lganidan so'ng, senga

qiziqmay qo'yadi va seni tashlab ketishi mumkin), «jiddiy tanbex,lar»dan qo'rqish (bunaqa erkin, oshkora, ochiq muloqotda o'zing haqingda sheriging yoki biror-bir muhimroq masala haqida biror-bir nojo'ya gapni «gapirib», «laqqillab» qo'yishing mumkin). Bu-lardan tashqari muloqotlarning intimligidan (yaqin bo'lishidan) ko'pincha o'zining ajratuvchi (destruktiv), buzuvchi impulsaridan qo'rqish ham ushlab qolishi mumkin. Intim muloqotlarda biz xulqning ijtimoiy me'yorlari, ijtimoiy ta'qiklariga eng kam darajada bog'liq bo'lamiz va shuning uchun o'zimizga eng yaqin odamga nisbatan bo'lgan munosabatlarimizda biz o'zimizni shunday tutishimiz mumkinki, boshqa hech bir odamga nisbatan o'zimizni bunaqa tuta olmaymiz. Nihoyat, muloqotlarning intim bo'lishidan, ayrim odamlarni boshqa odamning individualligiga haddan tashqari ortiqcha kirishib, qo'shilib ketish, boshqa odamga «aralashib», singib ketish tufayli o'zining individualligini yo'qotib qo'yishdan qo'rqishi ham ushlab turadi. SHuning uchun «birlashishdan oddin va birlashish uchun dastlab chegarani, aloqalarni yaxshilab belgilab, aniqlab olish» o'z individualligi va shaxsini mustahkamlab olish lozim. Er-xotinlarning oiladagi muloqotining muhim xu-susiyatlaridan biri shuki, u ma'lum darajada kundalik, maishiy prozaik fonda amalga oshishidir. Boshqa odamlar, boshqa erkaklar va ayollar bilan bo'lgan muloqotda biz ko'tarinkilikni, uyda esa uning oshxonasini ko'ramiz. Bular esa bir-birlaridan juda uzoq va odamlarga turlicha talablarni qo'yadigan tushunchalardir.

Psixologlar muloqotning o'ziga xos uch xil kommunikativ pozitsiyasini farqlaydilar. Bular: «ota yokining hammasi bir odamda mujassam bo'lishi mumkin. «Ota yoki ona» pozitsiyasida bo'lish - bu o'zining boshqalardan ustunligini anglash, rag'batlantirish va jazolash huquqiga egalikni his qilish demakdir. «Ota yoki ona»ning murojaati odatda pand-nasihatli, e'tirozga o'rin qoddirmaydigan, uzil-kesil bo'ladi, u o'zi buni doimo namoyon qilavermasada, biroq o'ziga hurmatni talab qiladi. U tartibni nazorat qilishni va odam-larni boshqarishni, juftiga, «otalarcha» («onalarcha») unga homiylik qilib xuddi zaifroq odamga yondoshgandek yondashishni yoqtiradi.

«Katta» pozitsiyasi odamning atrofida odamlar bilan teng darajada muloqotda bo'la olishni bildiradi. Atrofdagilarga o'z hukmronligini ham o'tkazmaydi yoki o'ziga nisbatan «ma'qulloqchi» munosabatni ham kutmaydi.

«Bola» pozitsiyasida odam xafagarchilikka yuqori sezgirlikni, ko'ngli bo'shlik, oson ishonuvchanlik, o'yinqaroqlik, injiklik, boshqalardan mehr olishni istash, sezishni, kuchliroq odam tomonidan panoht tutishni va shu kabilarni namoyon qiladi.

Agar shu pozitsiyalar o'zaro muvofiq kelsa va o'zaro mos bo'lsa, masalan kimdir juftiga nisbatan bo'lgan munosabatda «otalik» yoki «onalik» pozitsiyasini tutsa-yu, ikkinchi tomon esa bajonidil «bolalik»ni namoyish etsa - bu yaxshi, agar ikkita «katta» pozitsiyasi o'zaro to'qnash kelsa, bu ham yaxshi, biroq oilada ikkita «ota» («ona») duch kelib qolsa, unda ularning muloqotida zo'riqish, nizoli vaziyatlarning yuzaga kelishi muqarrar.

Nizoli vaziyatlar odatda uzoq vaqtlar davomida etiladi, shuning uchun oqil va tajribali odamlar ularning dastlabki alomatlarini o'z vaqtida payqab, ularga lozim darajada munosabat bildirib, ularni bartaraf qilishi yoki mumkin qadar zaiflashtirishi mumkin.

ER-XOTINLIK MUNOSABATLARI

Biz yuqorida oilada shaxslararo munosabatlar va muloqot psixologiyasiga tegishli masalalarga qisman to'xtalib o'tdik. Endi esa mazkur masalada yosh oila me'zonlari haqida fikr yuritsak. Psixolog va sotsiologlarning fikricha, kelin-kuyovlarning yoshi 30dan oshmagan 1-nikohdagilar yosh oila hisoblanadi. Odatda yosh oila tushunchasi oilaviy hayotning dastlabki 10 yilini o'z ichiga oladi.

Nikohtsan o'tib oila qurilgandan so'ng u bir necha bosqichlarni bosib o'tadi. SHulardan eng ko'p kuzatiladigani sotsial va psixologik jihatdan katta ahamiyat kasb etadigan ham aynan shu yosh oila bosqichiga to'g'ri keladi. Bu bosqichda er-xotinlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari shakllanadi, farzandlar dunyoga keladi, ularni tarbiyalash, voyaga etkazish bilan bog'liq bo'lgan asosiy ishlar

amalga oshiriladi. SHularni hisobga olgan holda hukumatimiz tomonidan yosh oilalar, ularning mustahkamligini ta`minlash va ularda ijtimoiy, iqtisodiy va ma`naviy qo'llab quvvatlash yangi oilaning barqarorligini ta`minlashga imkoniyatlar yaratish borasida ham bir qator ishlar amalga oshirishshoqtsa.

Oilaning mustahkam bo'lishi, er-xotinning baxtiyor, tinch-totuv yashashlarida ularning o'zaro qovushuvi muhim rol o'ynaydi. O'zaro qovushishlarni shartli ravishda uchta tarkibiy qismga ajratish mumkin:

Biologik qovushuv.

Psixologik qovushuv.

Sotsial (ijtimoiy) qovushuv.

To'ydan keyingi dastlabki «asal oyi»¹ odatda, Qadimgi yunonlarda nikohdan o'tib oila qurgan yoshlar ixtiyoriga echki va asalarilarni topshirib, bir oyga toqqa ko'chirib yuborardilar. Bir oy davomida yosh kelin-kuyov echki suti bilan asalni iste`mol qiladilar va tabiat quchog`ida yashaydilar. Bundan ko'zda tutilgan maqsad - ulardan tug`ilajak farzandning sog`lom bo'lishini ta`minlash bo'lgan. Osoyishta, shirin, totuvlik bilan o'tadi. «Qolgan oylar va yillar ham xuddi shunday yaxshi, baxtli davom etishi uchun nimalarga e`tibor berish kerak?», «YUqoridagi qovushuv turlaridan eng muhimi va asosiysi qay biri?» degan savollar tug`iladi. Quyida biz ushbu savollarga javob berishga harakat qilamiz.

Biologik QOVUSHUV. Biologik shaxobchaning ruhiy shaxobchaga nisbatan bir muncha turg'unligini, kam o'zgaruvchanligini hisobga olish zarur. YA`ni shakllangan mijoz toifasini o'zgartirib bo'lmasligini va bunga intilishning samarasizligini unutmaslik lozim. Mijoz turi jihatidan kelin-kuyovlar turlicha bo'lishi, ba`zan esa bir-biriga qarama-qarshi zid to-ifalarga mansub bo'lishi mumkin. Lekin buni oila mustahkamligi uchun xavfli omil deb hisoblash xato bo'ladi. Ko'p hollarda bunday oilalardagi er-xotinlar bir-birlarida etishmaydigan psixologik xususiyatlarni to'ldirib turadilar. SHu bilan birga xolerik turga mansub bo'lgan er-xotinlar o'rtasida salga nizo-janjallar chiqishi muhim omil

bo'lishi mumkin. Qay-liklarning mijoz jihatdan turmush qurishlari turli ko'rinishlardan iborat bo'lishi mumkin. Masalan, XX (xolerik kuyov - xolerik kelin), XS (xolerik - sangvinik), XF, XM, SS, FF, FM, MM va boshqa murakkab qovushuvlar. Bu erda eng muhimi mijoz turi emas, balki ular o'rtasidagi hissiyot kuchi, psixolo-pedagogik bilim saviyasi, oilaviy hayotni mustahkamlashga intilish, tarbiya va madaniy saviya darajasi, o'zaro munosabatlardagi madaniyatdir.

XULOSA

Oila har bir millatning qadriyatlari shakllanib rivoj topadigan, kamolotga erishadigan muqaddas manzil bo'lib, milliy qadriyatlarning dastlabki nav-nihollari ana shu muqaddas maskanda yuzaga keladi, o'sadi va kelgusida o'z mevasini beradi.

«Oilani ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi siyosatimizning tamal toshidir, - deb ta'kidlaydi Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov – Biz davlatimizning ijtimoiy negizlarini, uning barqarorligini mustahkamlashda, jismonan baquvvat, ma'naviy boy avlodni-mamlakatimizning ertangi kuni egalarini tarbiyalashda oilaning rolini oshirishiga juda katta ahamiyat bermoqdamiz».

Oila jamiyatning eng kichik bir qismi bo'lib, bolaning madaniy, estetik va boshqa ehtiyojlarining o'sishini va sog'lom turmush tarzini ta'minlovchi;

Oila bolaning fe'l-atvori asoslarini shakllantiruvchi birinchi murabbiy;

Oila-hayotning barcha jabhalarida yosh avlodning doimiy maslahatchisi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchisidir.

Demak, oilaning mustahkamligi, uning moddiy, ma'naviy to'la-to'kisligi – bu davlatning yoki jamiyatning faravonligi demakdir. Chunki, oilasi kambag'al bo'lgan mamlakat kamdan-kam hollarda rivojlanadi.

Har bir xalq o'z oilasining baxtli bo'lishi, farzandlarning oqil, dono, xushmuomala, mard bo'lib kamol topishi uchun kurashgan. Jumladan o'zbek xalqi barcha SHarq xalqlari kabi oilaga, bola tarbiyasiga juda katta ahamiyat bergan. Bu an'ana avlodni xalq donishmandligining timsoli sifatida o'tib kelgan va milliy

madaniyatimizda o'ziga xos o'rin tutadi. Ilgari ota-onalar navoiyxonlik, fuzuliyxonlik, bedilxonlik qilishganda, donishmand shoirlar asarlarining mag`zini chaqishganda, bolalar ham jon-dilidan quloq solishgan: nur-hikmat fikrlar yoshlarimizga kuchli ta`sir etib, ularning tarbiyalanishida muxim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda yosh oilalarning buzilishi, bolaning otasiz yoki onasiz tarbiyalanish xollari ko'paydi: ba`zi oiladek muqaddas jamoaga engiltaklik bilan qaray boshlandi, arzimasi baxonalar, sayoz fikrlar tufayli murg`ak bolani ota yoki ona mexridan benasib yashashiga sabab bo'ldi va bu hodisalar ijtimoiy hayotga ham o'z ta`sirini ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Oila farovonligi – millat farovonligi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 5 yilligiga bag`ishlangan majlisidagi tabrik so'zi. // Xalq so'zi gazetasi. – 1997. – B. 8.
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: Adolat, 1998. – 302 b.
3. XXI asr oilasi kontseptsiyasi. Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi. – T.: NISIM, 2002. – 28 b.
4. Andreeva T.V. Semeynaya psixologiya. – SPb.: 2004.
5. Antonov A.I. Evolyutsiya normi i tipov demograficheskogo povedeniya// Detnost semi: vchera, segodnya, zavtra. – M.: 1986. – S. 10-25.
6. Antonov A.I., Sorokin S.A. Sudba semi v Rossii XXI veka. – M.: 2000 (gl.6 "Semya i zdorove").
7. Antonov A.I., Borisov V.A. Krizis semi i puti ego preodoleniya. – M.: 1990.
8. Bo'riev Ochi. O'zbek oilasi tarixidan. – T.: O'qituvchi, 1995. – 128 b.
9. Karimova V. Mehr va muruvvat oiladan boshlanadi. – T.: Yangi asr avlodi, 2004. – 28 b.
10. Karimova V. Oila tafakkur va salomatlik: (Oilada sog'lom turmush tarzini

yaratish xususida) //Boshlang'ich ta'lim. – 2005. – № 2. – B.8-11.

11. Karimova V. Salomatlik psixologiyasi. – T.: YAngi asr avlodi, 2005.
12. Karimova V. Oilaviy hayot psixologiyasi: O'quv qo'llanma. – T.: 2006 – 142 b.
13. Eydemiller E.G. Методы семейной диагностики и психотерапии: Методическое пособие. – М.: 1996.
14. Eydemiller E.G., Dobryakova I.V., Nikolskaya I.M. Семейный диагноз и семейная психотерапия. – SPb.: 2003.
15. Eydemiller E.G., YUstitskiy V.V. Семейная психотерапия. – L.: 1990.
16. Eydemiller E.G., YUstitskiy V.V. Psixologi i psixoterapiya semi. – SPb.: 1999.
17. Erikson E. Detstvo i obshestvo. – SPb.: 1996.
18. YUng K. Brak kak psixologicheskoe otnoshenie // Konflikty detskoy dushi. – M.: 1996.
19. G'afforov YA. Oilada huquqiy tarbiya. – T.: "O'zbekiston", 1991. – 40 b.